

Булунғур туман тиббиёт бирлашмаси


**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA
MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

№ LK72008264

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma
2. **Loyihani nomi:** Xizmat ko'rsatish
Samarqand viloyat "TOZA HUDUD" DUK Bulung'ur tuman nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi rahbar A.Mamarasulov ikkinchi tomondan Bulungur tuman «Tibbiyot birlashmasi» direktori V.Y.Xudoykulov o'rtasida umumiy summasi 2 999 817 so'm (Ikki million tuqqiz yuz tuqson tuqqiz ming sakkiz yuz o'n yetti) so'mlik № 28 - sonli shartnoma loyixasi.
3. **Loyiha ishlab chiquvchi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot**
Bulung'ur tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 11-yanvar kuni ishlab chiqilgan va huquqiy ekspertizadan o'tkazish uchun dasturga kiritilgan

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 28-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunning 10-moddasi talablariga muvofiq tuzilgan. Shartnomada belgilangan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining pudrat shartnomasi to'g'risidagi normalar bilan tartibga solingan va taraflarning javobgarligi va nizolarni hal qilish amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni tuzish maqsadga muvofiq.

Bulung'ur tuman Yuridik xizmat
ko'rsatish markazi bosh yuristkonsulti



N.Abdiyev

KO17

ShARTNOMA 28

2022 yil "11" yanvar

Bulung'ur tuman

Samarqand viloyat "TOZA HUDUD" DUK Bulung'ur tuman filiali bundan buyon matnda "IJROChI" deb ataluvchi nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi raxbar A.Mamarasulov bir tomondan, Bulung'ur tuman Bulung'ur Tibbiyot birlashmasi, bundan buyon matnda "ISTE'MOLChI" deb ataluvchi nomidan, Ustav (Nizom) asosida faoliyat yurituvchi raxbar V.Y.Xudayqulov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani, quyidagi maqsadlarda tuzdilar,

1. ShARTNOMA MAZMUNI

1.1. Mazkur shartnomaga binoan Ijrochi bilan Iste'molchi o'rtasida maishiy chiqindilarini olib chiqib ketish xizmatlari bo'yicha to'g'ridan to'g'ri xo'jalik bilan aloqa o'rnatiladi.

2. Iste'molchi topshiradi, Ijrochi esa Iste'molchi joylashgan xudud manzilidan bir xaftada 1 marotaba (___ l., ___ kg., ___ m3) chiqindi saqlash konteyneridagi (yoki belgilangan joydan faqat maishiy chiqindi) maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi, hamda "Yo'nalish varaqasiga" va buyurtmachini arizasiga bajargan ishlari yuzasidan belgi qo'ydiradi.

2. KO'RSATILADIGAN XIZMATLAR UChUN HISOB-KITOB QILISH

2.1. Ushbu shartnomani imzolash paytidagi amaldagi narh har bir m3 MCh uchun 38 870 (o'ttiz sakkiz ming sakkiz yuz yetmish) so'm QQS bilan 44 700 (qirq to'rt ming yetti yuz) so'm ni tashkil etadi.

Shartnoma bo'yicha uch oylik ko'zda tutilgan chiqindi miqdori 67,11 m3, uch oyiga 999 939 so'm yoki mos ravishda QQS bilan yillik ko'zda tutilgan chiqindi miqdori 2 999 817 so'm (Ikki millon tuqqiz yuz tuqson tuqqiz ming sakkiz yuz o'n yetti) so'mni tashkil etadi.

2.2. Maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish tartibi va tariflarining o'zgargani to'g'risida Iste'molchining abonelik punktlarida e'lonlar osish yo'li bilan, shunindek ommaviy axborot vositalari orqali Iste'molchiga ma'lum qilish.

2.3. Iste'mochilar maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun oylik to'lovni 100 foizdan kam bo'lmagan miqdorda 1 oy oldin amalga oshirishlari shart.

2.4. Yuridik manzil, bank rekvizitlari, korxonona nomlari yoki MCh xajmi o'zgargan taqdirda, tomonlar 10 kun oldin yozma ravishda ogohlantirilishi kerak.

5. Ko'rsatilgan xizmatlar sifatini baholash natijalariga ko'ra Iste'molchi va Ijrochi vakillar tomonidan imzolanadigan, xizmatlar ko'rsatilmaganligini, tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilganini tasdiklovchi fakt bo'yicha dalolatnoma tuziladi.

Xizmatlar ko'rsatilmaganligi, tegishli bo'lmagan sifatdagi xizmatlar ko'rsatilgani to'g'risida tuzilgan dalolatnoma maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun to'lovlar miqdorini qayta Hisob-kitob qilish, shunindek o'z majburiyatlarini buzganligi sababli Ijrochining jarima to'lashi uchun hujjat hisoblanadi.

Ijrochi tomonidan Iste'molchining xayoti, salomatligi va mulkiga ziyon etkazilgan holatlarda etkazilgan zarar fakti qayd etilgan dalolatnoma tuziladi, u Ijrochi va Iste'molchilarning vakillari tomonidan imzolanadi.

Ijrochi vakili kelmagan taqdirda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati vakilining imzosi yetarli bo'ladi.

Ijrochi vakili dalolatnomani imzolashdan bosh tortsa, mazkur dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan sabablarini yozma ravishda asoslashi shart. Aks holda, Iste'molchi maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni sud qarori qabul qilinganucha to'xtatishga haqlidir.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

1. Ijrochi quyidagilarga majbur:

Belgilangan muddatlarda maishiy chiqindilarni olib chiqib ketishni amalga oshirish; Qonunchilikda yoki shartnomada belgilangan muddatlarda iste'molchining buyurtma nomalarini bajarish;

Maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimini tatbiq etish va real vaqt rejimida shaxsiy hisobvaraqaqlarining holatini kuzatib borish;

Maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining amalga oshiriladigan rejimi va sifati bo'yicha Iste'molchilarning murojaatlari (arizalari, takliflari, shikoyatlari), shuningdek ularning ijrosi hisobini olib borish;

Maishiy chiqindilarni olib ketish xizmatlari uchun to'lovlar Hisob-kitobining holati, shuningdek ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha qarzlarning yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Iste'molchiga bepul taqdim etish;

3.2. Iste'molchi quyidagilarga majbur:

Xizmatlari uchun shartnoma tuzish va uning talablarini bajarish;

MCh tashlanadigan konteynerlarni qurilish va yirik xajmdagi chiqindilar, shox-shabbalar bilan to'ldirmaslik, aksincha, ularni maxsus joyga yig'ish hamda bu chiqindilarni tashib ketish uchun alohida shartnoma tuzish va xaq to'lash;

Chiqindi saqlash qutilari joylashgan maydonchalar va chiqindi to'plash qurilmalariga avtomashinalarning erkin yaqinlashishini va chiqindi qutilarini doimo soz holda saqlashini ta'minlash;

MChni o'z vaqtida tashib chiqib ketilishini doimiy nazorat qilish, tasdiqlangan yo'nalish jadvali buzilgan hollarda _____ telefoniga ma'lumot berish;

Bajarilgan ishning xajmini Ijrochining xujjatlarida Iste'molchi vakilining imzosi va korxonona muhri bilan tasdiqlab borish;

Электрон рақамли имзо орқали тасдиқланган, Ҳужжат коди: LK72008264

Har oyning boshida o'tgan oyda bajarilgan ish hajmini bajarilganini ko'rsatuvchi Hisob dalolatnomasini rasmiylashtirish;

Xar oyda oyning oxirigacha o'tgan oyda bajarilgan ishlarining dalolatnomasiga asosan pul mablag'larini Ijrochining hisob raqamiga o'tkazish hamda rejaviy ish hajmiga qarab oldindan 100 % kam bo'lmagan miqdordagi to'lovlarni amalga oshirish;

3.3. Shartnomada ko'rsatilgan ish hajmini o'z vaqtida va muddatidan kechiktirib bajarganlik uchun xar bir kuniga, 0,4 % miqdorida, lekin ish hajmini 50 % dan oshmagan miqdorida penya to'lanadi.

4. TOMONLARNING HUQUQLARI

4.1. Iste'molchi quyidagi huquqlarga ega:

Shartnoma asosida, o'ziga zarur bo'lgan, belgilangan sifatdagi, hayoti va salomatligi uchun xavfsiz bo'lgan, mulkiga zarar bermaydigan hajmdagi xizmatlardan foydalanish;

Xizmatlar ko'rsatilayotganda Ijrochi aybi bilan yuzaga kelgan kamchiliklarning bepul bartaraf etilishini va shartnomada kelishilgan miqdorlarda neustoyka (jarima yoki penya) to'lanishini talab qilish;

Ijrochidan maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmatlarining Hajmi va sifati, ularning ko'rsatilishi shartlari, xizmatlar uchun to'lov miqdorlarining o'zgargani va to'lov tartibi to'g'risidagi axborotlarni olish;

Maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar uchun elektron to'lov tizimi orkali to'lash va real vaqt rejimida shaxsiy hisob varaqalarining holatini kuzatib borish;

Ijrochi tomonidan shartnoma majburiyatlari sifatsiz bajarilgan hollarda ijrochiga yozma yoki telefon orqali shikoyatlar taqdim etish va ijrochidan xizmatlar to'liq ko'rsatilmaganini faktini tasdiqlovchi dalolatnomani tuzishni, shuningdek aniqlangan kamchiliklarning belgilangan muddatlarda bartaraf etilishini talab qilish;

Iste'molchi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.2. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega:

Ko'rsatilgan xizmatlar uchun buyurtmachidan to'lovlarni o'z vaqtida talab qilib olish huquqiga ega.

Mijozlar tomonidan qattiq maishiy chiqindilarni ko'chalarga, suv yo'llariga, ariq va qattiq maishiy chiqindilarni to'plash va ko'mib tashlash uchun mo'njallanmagan joylarga, shuningdek harakatdagi avtotransport vositasi yuradigan qismiga tashlangan holatlar Ijrochining vakillari tomonidan aniqlansa, ijrochining vakillari tomonidan tuzilgan dalolatnomaga imzo qo'yishdan bosh torgan holatlarda, ijrochining vakili tomonidan tuzilgan dalolatnoma qonuniy jarimaga tortish huquqiga ega.

5.1. SHARTNOMA MUDDATI

5.1.1. Shartnoma muddati "31" Dekabr 2022 yilgacha belgilanadi.

5.1.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuziladi. Byudjet tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalar tegishli tartibda tuman yoki shaxar g'aznachilik bo'linmasining DMBAT dasturidan belgilangan tartibda royxatdan o'tguzilganidan song qonuniy kuchga kiradi.

6. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI.

6.1. Tomonlar orasida kelib chiqqan barcha kelishmovchilik va tortishuvlar sudgacha muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Mazkur shartnomadan kelib chiqadigan kelishmovchiliklar, tomonlar tomonidan hal etilmagan taqdirda, O'zbekiston Respublikasida belgilangan qonunchilikka binoan dovagarning joylashgan manzildagi iqtisodiy sud orqali hal etiladi.

6. TOMONLARNING YurIDIK MANZILLARI:

Samarqand viloyat "Toza xudud" DUK Bulung'ur tuman filiali

Manzil: Mingchinor MFY

Tel: 93-236-02-02, 93-669-19-63

Bank nomi: ATB "Agro bank" Bulung'ur filiali

H/r: 20210000700781002007

MFO 00290 STIR 304938205

XXTUT 38210

Rahbar:  A. Mamarasulov

Bulung'ur tuman TTB

Manzil: O'zbekiston kucha 96 uy

Tel: 442-24-17

H/r: 100022860182067072120054004

INN: 200731264_OKONX 91514

MFO: 00014

Rahbar:

V.Y.Xudayqulov

